



ISSN (E): 2181-4570

**MOTIVATSIYA VA UNING ILMIY-NAZARIY O'RGANILISH SOHASI****Namozova Latofat Rustamovna****Pastdarg'om tuman 3-son kasb-hunar maktab psixologi**

**Annotatsiya.** Bugungi davrning har bir jabhasida motivatsiya va uni inson faoliyatiga singdirishga doir qarashlar, aniq xatti-harakatlar uchraydi. Maqolada motivatsiya va uning ilmiy-tadqiqot sohasi, nazariyalar, o'ziga xos qarashlar tahlilga tortilgan. Shu bilan birga motivatsiyaga bog'liq tushunchalar, olimlarning ta'riflari, ularning ahamiyatli jihatlari yoritilgan. Mualliflik yondashuvi sifatida izlanishlar jadvallar asosida taqdim qilingan.

**Tayanch so'zlar:** motiv, ehtiyoj, motivlashtirish, rag'bat, jarayon, faoliyat

**Аннотация.** В каждом аспекте современного мира есть установки и действия, которые мотивируют и интегрируют его в человеческую деятельность. В статье анализируется мотивация и область ее исследования, теории, уникальные взгляды. При этом разъясняются понятия мотивации, определения ученых, их важные аспекты. В качестве авторского подхода исследование представлено в табличной форме.

**Ключевые слова:** мотив, потребность, мотивация, побуждение, процесс, деятельность.

**Annotation.** In every aspect of the modern world, there are attitudes and actions that motivate and integrate it into human activity. The article analyzes motivation and the area of its research, theories, unique views. At the same time, the concepts of motivation, definitions of scientists, their important aspects are explained. As an author's approach, the study is presented in tabular form.

**Keywords:** motive, need, motivation, motivation, process, activity.

Dunyo miqyosidagi globallashuv jarayoni natijasida yuzaga kelgan mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy integratsiya turli soha mutaxassislarining rivojlanish davri tendensiyalarini tushunish, o'z-o'zini boshqarish, mavjud bilimlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda.

Ta'lim muassasalarida o'qitish tizimi va usullaridan foydalanishni samarali tashkil qilish, muayyan yangiliklarni joriy qilishga ochiqlik, g'oyalarni, tashkilot qadriyatlarini yaratish va tizimga kiritish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bu jarayonda umumiy o'rta ta'lim faoliyati natijadorligini ta'minlashda pedagog-xodimlarning xatti-harakatlari alohida ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat o'qituvchidan o'z-o'zini





doimiy ravishda kasbiy rivojlantirib borishni talab qiladi, uzluksiz kasbiy rivojlanishga esa motivatsiyaning mavjudligi, uning motivatsion tayyorligi muhimdir.

Motivatsiyaning murakkab va serqirraligini tadqiq etish, ko'plab yondashuvlar orqali uning asl tabiati, tarkibini tushunish hamda atroflicha o'rganish alohida tasniflarni talab etadi. Aynan shu sabab olimlar turli atamalardan foydalanganini va bir-biriga o'xshamagan talqinlarini ko'rish mumkin. Ishimizda ushbu nazariyaning asosi bo'lgan motivatsiya va motivatsion tayyorlik aspektining konseptual asoslarini o'rganish, tahlil qilish, aniqlash hamda bugungi o'zgaruvchan ta'lim muhitida o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini ta'minlash maqsad qilindi.

Motivatsiyaning tub mohiyatini tasniflashda ehtiyoj, motiv, motivlashtirish hamda rag'batlantirish kabi tushunchalarning mazmuniga to'xtalish o'rinlidir.

Ehtiyoj – biror narsaga bo'lgan talab; hojat, zarurat, zaruriyat, muhtojlik.

Ehtiyojlar jismoniy, idrok etilgan va idrok etilmagan turlarga ajraladi. Jismoniy ehtiyojlar – bu ish o'rni va yashash joyini o'zgartirish ehtiyoji ko'rinishida namoyon bo'lsa, idrok etilgan ehtiyojlar – mavjud bizga yoqadigan narsalargacha siljish lozim. Idrok etilmagan ehtiyojlar ruhiy bo'lib, bular – ichki rag'batlardir. Umuman olganda, ehtiyojlar – bu shunday narsalarki, ular inson ichida (ichki dunyosida) paydo bo'ladi va o'rinishadi, har xil insonlar uchun yetarli darajada umumiy hamda har bir insonda o'z vaqtida ma'lum ko'rinishda individual paydo bo'la oladi. Maqsadning ehtiyoj darajasiga chiqishi motivning kuchiga bog'liq.

Motiv – 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; 2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi. U shaxsdagi xulq-atvorga qaratilgan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

Motiv ilmiy termin sifatida bir qancha ta'riflarga ega, xususan, X.Xekxaufen motivni fikr yuritishning mahsuli – konstruktiv desa, boshqa tadqiqotchilar motivni psixologik hodisa deb izohlaydi. E.G.Azimov va A.N.Shukin motivni faoliyatga ishtiyoq uyg'otuvchi, inson ehtiyojlarini qondirishga bog'liq, tashqi va ichki shart-sharoitning hamjihatligiga asoslangan sub'ektni va insonlarni faollikka chiqaradigan va uning yo'nalishini belgilab beradigan hodisa sifatida ta'riflashgan.

Psixologiyada, jumladan, S.L.Rubinshteyn tomonidan ham shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvori, o'zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga





oshishi motiv tushunchasi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Motiv yaqqol faoliyat nuqtai nazaridan qaralib, ehtiyojli yondashuvi mazkur nazariyaning yanada boyishiga sabab bo‘ldi. Olim motivning psixologik mohiyatini izohlarkan, faoliyatning manbai bo‘lgan va unga undab turgan jonkuyarlik deb atagan. A.N.Leontev motivlarni ikki kategoriyaga bo‘ladi: mazmun kasb etuvchi motivlar va stimul-motivlari. Birinchisi ham (ishtiyoq) uyg‘otuvchi, ham mazmun kasb etuvchi vazifani bajarsa, ikkinchisi faqat (ishtiyoq) uyg‘otuvchi vazifani bajaradi. Ushbu masalani yoritishda V.M.Karimova, F.A.Akramovalar ikki jihatni farqlab ko‘rsatishadi: a) ichki sabablar, ya’ni xatti-harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari bo‘lib, bular ayni aniq holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan motivlar turlicha klassifikatsiyalanadi. Ularning birida motivlar ikki yo‘nalishga, ya’ni birinchisi ularning kelib chiqishi va ahamiyatlilik darajasi, ikkinchisi anglanilish darajasiga ko‘ra farqlangan. Shuningdek, kelib chiqishi va ahamiyatiga ko‘ra birlamchi va ikkilamchi guruhlariga ajratilgan.

Birlamchi motivlarda tug‘ma ehtiyojlar (ovqatlanish, ichimliklarga chanqoqlik, qulay muhit, kasallik va xavfdan qutilish, yaqinlarning farovonligi, to‘siqlarni bartaraf etish, o‘yin va boshqalar) ifodalansa, ikkilamchi motivlar ijtimoiylashuv (go‘zallik, didlilik, poklilik, ehtiyotkorlik, qiziquvchanlik, ishonchlilik, qadr-qimmat, tejamkorlik va samaralilik, ilmlilik, xabardorlilik, ishga qobiliyatlilik, sog‘lik va universallik) jarayonida yuzaga chiqadi.

Motivlarning ikkinchi klassifikatsiyasi anglaniladigan va anglanilmaydigan motivlarga bo‘linadi. Anglaniladigan motivlar shaxsning anglash vazifasiga tayanadi. Anglanilish ichki va tashqi dunyoda orttirilgan shaxsiy tajribalar bilan bog‘langan. Anglanilish jarayonlari shaxsiy diqqatni yoki shaxsning ongida voqealarni anglash va mulohaza qilish qobiliyatini yaratadi. Bunda motiv ilgari sodir bo‘lgan harakatdan anglanilgan bo‘ladi. Miyaning barcha ma’lumotlarni tabiatan boshqarishi qiyin, shuning uchun ham tez-tez bajariladigan harakatlar va xulq-atvorlar keng darajada anglanilmaydigan motivlar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda motiv hamda motivatsiya tushunchalarini farqlab olish kerak, o‘rganilgan adabiyotlarga ko‘ra motivatsiya – motivning ongli shakllantirilish jarayoni, motivlar motivatsiyaning tuzilmasini tashki letadi, degan xulosaga kelish mumkin.





“Motivlashtirish – ta’lim oluvchilar faoliyatini ma’lum ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, psixologik ta’sir etish yo’llari bilan maqsadga yo’naltirish. Motivlashtirish ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlariga yo’nalish beradi, erishish zarur bo’lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish, takomillashtirish yo’nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi”.

Motivlashtirish – bu ruhiy omil bo’lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollaridir. U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag’batlantiruvchi kuchli vositadir.

Demak, rag’batlantirish tushunchasi ham motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Rag’batlantirish – “rag’bat” (biror ishga bo’lgan xohish, istak, mayl, ra’y; qiziqtiruvchi, qo’zg’atuvchi omil, sabab; psixologiyada – insonhis-tuyg’ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy ta’sir), “rag’batlanmoq” (manfaatdorlik oshuvi yoki taqdirlash natijasida biror ish, faoliyatga qiziqmoq, rag’bati oshmoq) so’zlarining ma’nosi umumlashgan shakl. Rag’batlantirish – shaxsga va sub’ektlarga tashqi kuchlar bilan ta’sir ko’rsatib faoliyat yuritishga undash.


Rag’batlar ma’lum bir motivlar ta’sirini hosil qiladigan tashuvchilar rolini o’ynaydi. Rag’batlarga alohida predmetlar, boshqa odamlarning faoliyatlari, muloqotlar, majburiyat va imkoniyatlarning tashuvchilari, yaratilgan shart-sharoitlar va ko’pgina boshqa narsalar kirishi mumkin. Bular shaxsga ma’lum bir faoliyat natijasining kompensatsiyasi sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Demak, shaxslarni motivatsiyalash uchun turli xil rag’batlardan foydalanish jarayoni rag’batlantirishdir.

Motivatsiya esa inson faoliyatini boshqarishda uning axloqiy mayllaridan foydalanish, deb tushuniladi. Motivatsiya atamasi ilk marta 1880-yillarning boshida psixologlar lug’atida tilga olingan bo’lsa, Vebstr akademik lug’atida motivatsiya – “motivatsiyalash faoliyati yoki jarayon”, deya ta’riflangan. Hozirgi kungacha ilmiy adabiyotlarda motivatsiya muhim omil sifatida bir necha tadqiqotlarda o’rganilgan. Buni quyidagi jadvalda ko’rib o’tamiz:

#### 1.1-jadval

#### Motivatsiya tushunchasining talqini

Maslou	Motivatsiya shaxsning biror-bir qismi, tomoni emas, balki uning butun shaxsiyatiga tegishli. Har qanday psixologik yoki fiziologik
--------	--







	holat, tanadagi biror bir o'zgarish ham ma'lum darajada motivatsiya bilan bog'liq.
S.L.Rubenshteyn	Ruhiyat orqali hosil bo'ladigan determinatsiya.
G.V.Rogova	Motivatsiya darslar samaradorligini belgilab beruvchi tarkibiy qism.
I.A.Zimnyaya	Insonning har qanday faoliyatini ishga soluvchi mexanizm.
O.S.Vixanskiy, A.I.Naumov	Bu insonni faoliyatga intiltiruvchi, faoliyatning shakli va chegaralarini belgilovchi hamda bu faoliyatga yo'nalish beruvchi, ma'lum maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yig'indisi.
A.G.Maklakov	Xatti-harakatni determinlovchi (aniqlab beruvchi) omillar sistemasi.
R.S.Nemov	Xatti-harakatni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamikj arayoni.
R.E.Slavin	Bu odamni harakatga keltiradigan va o'sha holatda ushlab turadigan ichki turtki, motivatsiya shaxsning harakatlanish yo'lini ochib beradi.
Nyustromva Devis	Shaxsni harakatga undovchi kuch, valentlik, istaklar, kutuvlar hamda vositalar uning mahsuli sifatida belgilanadi.
Wigfield, Eccles, Rodriguez	Har qanday maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatni amalga oshirish istagi. Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan muhitda, masalan, maktablarda, shaxsning motivatsiyasi ko'p jihatdan qilingan tanlovlarni, sarflangan sa'y-harakatlarni, vazifalarni bajarishda qat'iylikni va samarali ishlashni bashorat qilishi mumkin.
Deci, Ryan	Insonning biror narsani amalga oshirish uchun harakat qilishini anglatadi. Motivatsiya – bu rag'batlanishlardan ichki motivatsiyagacha bo'lgan davomiylik. Doimiy amalga oshiriladigan odatlar yig'indisi.
J.Jalolov	Nutqiy faoliyat ko'rsatishga moyillik, shaylik, ichki turtki, nutq mayli.






B.R.Samatova	Jarayon kechishida qo‘llab-quvvatlovchi va kerakli shijoatni so‘nishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlovchi hodisa.
--------------	--

Ta‘lim muassasasining umuman olganda, o‘qituvchining intilishlari tashqi muhitdan kirib kelayotgan o‘quvchiga, uning bilim darajasini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Shunday ekan, global kompetentlik talab qilinayotgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zarurati kuchaygan bir davrda o‘zgarishlarga to‘g‘ri yondasha olishi uchun o‘qituvchi faoliyatida va uning uzluksiz kasbiy rivojlanishida motivatsiya tizimini ta‘lim oluvchilarning manfaatlariga moslab ishlab chiqish hamda pedagog xodimning o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsion tayyorlik kompetentligini takomillashtirib borish lozim. Jumladan, motivatsiyaga berilgan ta‘riflarning mazmuni va izlanishlar mohiyatini to‘la anglash muhim ahamiyatga ega (1.2-jadval).

### **Tadqiqotchilarning motivatsiya tushunchasiga doir yondashuvlari mazmuni**

1.2-jadval

Olimlar	Mexanizm	Jarayon	Holat	Hodisa	Turtki	Istak	Kuch
Maslou		+	+			+	
S.L.Rubenshteyn		+		+	+	+	
G.V.Rogova	+		+				+
I.A.Zimnyaya	+		+			+	
O.S.Vixanskiy, A.I.Naumov		+			+		+
A.G.Maklakov	+	+					
R.S.Nemov		+		+			
R.E.Slavin		+	+		+		
Nyustromva Devis		+				+	+
Wigfield, Eccles, Rodriguez		+			+	+	+
Deci, Ryan		+	+		+		+
J.Jalolov					+		
B.R.Samatova				+			





Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish va tahliliy o‘rganish natijasida biz motivatsiyaga ta’limiy nuqtai nazardan quyidagi yondashuvni shakllantirdik, ya’ni motivatsiya – bu o‘qituvchi yoki o‘quvchi tomonidan o‘zining ta’lim berish va olishga, shaxsiy hamda kasbiy manfaatlarini, o‘z maqsadlariga erishishni ta’minlashga undaydigan, ehtiyojlarini uyg‘otadigan va rag‘batlantiradigan kuchlarning doimiy faol jarayonidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘rganilgan tadqiqotlar, insonlar faoliyatini motivatsiya qilishga urinishlar, umuman motivatsiya ta’riflari, ushbu tushunchaga doir talqinlar hozirgi kunda ham har bir sohada shakl-shamoyiliga muvofiq davom etmoqda. Shuningdek, ta’lim sohasi taraqqiyotida asosi, tirgagi bo‘lgan o‘qituvchini motivatsiyalash jamiyatdagi o‘rinini belgilashga, o‘z-o‘zini anglashga, ichki turtkning kuchlanishiga olib keluvchi usullardan biridir. Aynan tashqi motivatsiyalash uni ichki motiviga hamda faoliyatida uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik motivatsiyasiga yo‘naltiradi.

### Foydalanilganadabiyotlar

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2012. – 427 b.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. 3-е издание, пересмотренное. – Москва: 2010. – 448 с. – С. 410-413.
3. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O‘AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
4. Леонтев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: Учебное пособие. 2-е изд., стереотипное. – М.: Смысл: Академия, 2005. – 352 с.
5. Маклаков А.Г. Общая психология: Учебник для вузов / – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 583 с. – С.512.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. Электрон ресурс: <http://psylib.org.ua/books/masla01/index.htm>
7. Немов Р.С. Психология в 3 книгах. Книга 1. Общие основы психологии. Учебник. – М.: Владос, 2010. – 687 с.
8. Ньюстром, Дж.В., Дэвис, К. Организационное поведение / Дж.В.Ньюстром. К.Дэвис. – перевод с англ, под ред. Ю.Н. Каптуревского. – СПб.: Питер, 2000. - 448 с.





ISSN (E): 2181-4570

9. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

10. Pedagogue. *Merriam-Webster.com.Dictionary*, 2018. *Elektron resurs*: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/pedagogue>.

11. Рогова Г.В. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287 с. – С. 5.

12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.

